

**KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN TA'LIM: AFZALLIKLARI VA
CHEKLOVLARI**

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE

Iqtisodiyot fakulteti

Menejment kafedrasi o'qituvchisi

Nasriddinov Xusanbek Sadridin o'g'li

+998936290999

husanbeknasriddinov4@gmail.com**Annotatsiya**

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyati, uning afzalliklari va mavjud cheklovlari atroflicha yoritiladi. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim shaxsning nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki amaliy ko'nikma, malaka va ijtimoiy faoliyatda zarur bo'lgan sifatlarni rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur maqolada ushbu yondashuvning ijobiy jihatlari sifatida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, muloqot madaniyati, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ta'kidlanadi. Shu bilan birga, kompetensiyaga asoslangan ta'limni joriy etishda uchraydigan cheklovlar ham ko'rib chiqiladi. Jumladan, o'quv dasturlarining yetarlicha takomillashmaganligi, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi va moddiy-texnik resurslarning cheklanganligi kabi muammolar mavjudligi tahlil qilinadi. Muallif ushbu yondashuvni samarali tatbiq etish uchun ilmiy-metodik bazani kuchaytirish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va amaliy jarayonda milliy ta'lim an'alarini inobatga olish zarurligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: Kompetensiyaga asoslangan ta'lim, innovatsion pedagogika, ta'lim metodikasi, o'quvchi faoliyati, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, ta'lim samaradorligi, o'qituvchi tayyorgarligi, metodik ta'minot, ta'lim sifatini baholash, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, milliy va xalqaro tajriba.

XXI asr ta'limi global jarayonlar, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy hayotning tezkor o'zgarishlari ta'sirida tubdan yangilanmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy maqsadi o'quvchilarga shunchaki nazariy bilimlarni berish emas, balki ularning hayotda amaliy qo'llay olishi, mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va muammolarni samarali hal qila olishi kabi sifatlarni rivojlantirishdir. Shu bois ta'limda yangi metodologik yondashuvlarni izlash zaruriyati kun tartibiga chiqmoqda. Shulardan biri — kompetensiyaga asoslangan ta'lim yondashuvidir.

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim (KAT) — bu shaxsning bilim, ko'nikma va malakalarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim modelidir. Mazkur yondashuvda o'quvchi ta'lim jarayonining markazida bo'lib, o'qituvchi esa bilim beruvchi emas, balki yo'l boshchi, fasilitator rolini bajaradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish bilan birga, o'quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasida ham kompetensiyaga asoslangan ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat ta'lim standartlari yangilanib, umumiy o'rta va oliy ta'lim dasturlarida o'quvchilarda kasbiy, ijtimoiy, kommunikativ, axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodikalar joriy qilinmoqda. Shu bilan birga, mazkur jarayon o'zining afzalliklari bilan bir qatorda, qator cheklov va muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Mazkur maqolada kompetensiyaga asoslangan ta'limning nazariy mohiyati, uning afzalliklari va joriy etish jarayonida uchraydigan cheklovlari tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy ta'lim tizimida KATni samarali qo'llash uchun zarur shart-sharoitlar va amaliy tavsiyalar ham yoritib beriladi.

Birinchi navbatda biz kompetensiyaga asoslangan ta'lim haqida va uning afzalliklari to'g'risida bilib olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Kompetensiyaga asoslangan ta'limning afzalliklari sirasiga biz quyidagilarni kiritishimiz mumkin.

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv: Kompetensiyaga asoslangan ta'limning eng muhim afzalliklaridan biri o'quvchi faoliyatini markazga qo'yishidir. An'anaviy ta'limda asosiy urg'u bilimlarni yodlash va qayta takrorlashga qaratilgan bo'lsa, KATda o'quvchining mustaqil fikrlashi, o'zini-o'zi rivojlantirishga intilishi, amaliy faoliyat orqali bilimlarni o'zlashtirishi muhim hisoblanadi.

Amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish: KAT o'quvchilarning olgan bilimlarini faqat nazariy emas, balki kundalik hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, matematika darsida o'quvchi nafaqat formulalarni yodlaydi, balki ularni real hisob-kitob ishlarida, iqtisodiy vaziyatlarda qo'llashni ham o'rganadi.

Mustaqil ta'lim va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish: Mazkur yondashuvda o'quvchilar ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va loyihalar ustida ishlash orqali mustaqil qaror qabul qilish, ijodkorlik bilan yondashish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning shaxsiy faolligi va o'zini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya: Kompetensiyaga asoslangan ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar onlayn resurslar, elektron darsliklar, interfaol platformalar orqali bilimlarini mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar.

Hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish: KAT shaxsda nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Masalan, muloqot

madaniyati, jamoada ishlash, liderlik qobiliyati, muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi ko'nikmalar yoshlarni hayotga tayyorlashda asosiy poydevor vazifasini bajaradi.

Kompetensiyaga asoslangan ta'limning afzalliklari bilan tanishib chiqish qatorida uning cheklovlarigaham diqqat qaratib o'tishimiz maqsadga muvofiq sanaladi. Kompetensiyaga asoslangan ta'limning cheklovlari sirasiga biz quyidagi jihatlarni kiritishimiz mumkin.

Metodik ta'minotning yetarli emasligi: Kompetensiyaga asoslangan ta'limni to'liq joriy etish uchun metodik qo'llanmalar, darsliklar va o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar hali to'liq ishlab chiqilmagan. Bu esa jarayonning samaradorligini pasaytiradi.

O'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi: KATni muvaffaqiyatli tatbiq etishda o'qituvchilarning yangicha metodlarni bilishi va amalda qo'llay olishi muhim. Afsuski, ayrim hollarda pedagoglar eski an'anaviy yondashuvlarga tayanib qoladilar, bu esa yangi tizimning samaradorligini cheklaydi.

Baholash mezonlarining murakkabligi: An'anaviy ta'limda baholash ko'proq bilimlarni qayta aytib berishga asoslangan bo'lsa, KATda o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalarini to'g'ri baholash qiyin kechmoqda. Bu borada yagona standart va aniq ko'rsatkichlar hali to'liq shakllanmagan.

Moddiy-texnik baza muammolari: Kompetensiyaga asoslangan ta'limni samarali amalga oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar, elektron resurslar, laboratoriyalar va interfaol sinfxonalar zarur. Lekin barcha ta'lim muassasalari bunday sharoitlar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan.

Milliy ta'lim an'analarga moslashtirish zaruriyati: KAT xalqaro tajribadan kelib chiqqan yondashuv bo'lgani uchun uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish muhimdir. Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar, o'zbek xalq pedagogikasi va ijtimoiy-madaniy muhitni hisobga olmaslik uning samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Kompetensiyaga asoslangan ta'limning afzalliklari uni zamonaviy pedagogikaning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylantiradi. Biroq, uning cheklovlarini bartaraf etish, metodik va tashkiliy bazani mustahkamlash, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va milliy xususiyatlarni inobatga olish zarur. Faqat shundagina KAT o'zining to'liq samarasini ko'rsatishi mumkin.

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim bugungi globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uni hayotiy vaziyatlarga tayyorlash hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida faol ishtirok etadigan barkamol insonni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuv an'anaviy bilim berishga asoslangan ta'limdan farqli o'laroq, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik, muammoli vaziyatlarda tezkor yechim topish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi hayotiy zarur ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Maqolada ko‘rib chiqilganidek, KATning afzalliklari bilan bir qatorda qator muammolari ham mavjud. Jumladan, metodik ta‘minotning yetarli emasligi, o‘qituvchilarning yangicha metodlarga tayyorgarlik darajasi pastligi, baholash mezonlarining murakkabligi va moddiy-texnik bazaning to‘liq shakllanmagani ta‘lim samaradorligiga ta‘sir qiluvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, xalqaro tajribadan olingan modelni milliy ta‘lim tizimiga moslashtirish masalasi ham dolzarbdir.

Shu bois, kompetensiyaga asoslangan ta‘limni samarali amalga oshirish uchun biz quyidagi jihatlariga e‘tibor berishimiz kerak. Pedagog kadrlarni zamonaviy metodika va texnologiyalar asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ta‘lim dasturlari va baholash mezonlarini yanada takomillashtirish, o‘quv muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta‘minlash va milliy qadriyatlar va xalq pedagogikasini kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, kompetensiyaga asoslangan ta‘lim O‘zbekiston ta‘lim tizimi uchun dolzarb va istiqbolli yondashuv bo‘lib, u yoshlarning faqat bilimli emas, balki zamonaviy jamiyat talablariga javob bera oladigan, faol, tashabbuskor va ijtimoiy mas‘uliyatli shaxs bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim-tarbiyaga oid davlat siyosatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. — Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. “Umumiy o‘rta ta‘lim davlat ta‘lim standartlari” (yangi tahrir). — Toshkent, 2021.
3. Халиков, А. Компетенциявий ёндашув асосида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. — Тошкент: Фан, 2019.
4. Жўраев, Н. Замонавий педагогик технологиялар. — Тошкент: Иқтисод-молия, 2020.
5. Каримова, В. Педагогик психология. — Тошкент: О‘qituvchi, 2018.
6. Ходжиева, Н. Инновацион таълим методикаси. — Тошкент: Innovatsiya nashriyoti, 2022.
7. OECD. The Definition and Selection of Key Competencies: Executive Summary. — Paris: OECD, 2005.
8. Rychen, D. S., & Salganik, L. H. (Eds.). Key Competencies for a Successful Life and Well-Functioning Society. — Göttingen: Hogrefe & Huber, 2003.
9. Weinert, F. E. Concept of Competence: A Conceptual Clarification. — Munich: Max Planck Institute, 2001.
10. Mulder, M. Competence-Based Vocational and Professional Education: Bridging the Worlds of Work and Education. — Springer, 2017.